

Moliya-bank-tizimi va sanoat tarmoqlari integratsiyasini ta'minlash – milliy iqtisodiyot barqarorligini oshirishning muhim omili

Goziev O. – TMI magistranti

Ilmiy raxbar: prof. Ataniyazov J.

Jahon tajribasidan ko'radigan bo'lsak bank-moliya tizimi va sanoat tarmoqlarining mustahkam integratsiyasi milliy iqtisodiyot barqarorligi oshishida hamda uning tarmoqlarida innovatsion faollikning yuksalishida xizmat qiladi.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida moliya va sanoat kapitali integratsiyasini kuchaytirish orqali innovatsiyalarni ishlab chiqish va iqtisodiyot tarmoqlariga keng ko'lamda joriy bo'yicha yuqori natijalarga erishilmoqda. Xususan iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda aynan moliya va sanoat kapitali integratsiyasi asosida yuzaga kelgan korporativ tuzilmalar faoliyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion faollikning oshishida muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, moliya va sanoat kapitali integratsiyasini ta'minlash nafaqat moliyaviy tashkilotlar faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi, balki sanoat korxonalari tomonidan maqsadli loyihalarni amalga oshirish hamda yuqori samaradorlikka erishish jarayonini kuchaytiradi.

Jahon mamlakatlari tajribasidan ko'radigan bo'lsak, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tovar va xizmatlar bozorlarini kengaytirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun iqtisodiy integratsiya orqali o'zlarining moddiy va nomoddiy aktivlarini to'liq yoki qisman birlashtirgan asosiy va sho'ba jamiyatlari sifatida faoliyat ko'rsatuvchi yuqori integratsiyalashgan korporativ tuzilmalar keng tarqalgan. Mazkur integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarning keng tarqalgan shakli sifatida moliya-sanoat guruhleri namoyon bo'ladi. Moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish moliya va sanoat kapitali integratsiyasini kuchaytirish bilan birgalikda milliy iqtisodiyot barqarorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Moliya-sanoat guruhleri shakllanishi va rivojlanishining jahon tajribasi ko'rsatishicha, ular moliyaviy muassasalar va sanoat korxonalari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, yuqori ilmiy sig'imli ishlab chiqarish tarmoqlarini barqaror rivojlantirish hamda mamlakat innovatsion salohiyatini yuksaltirishning ta'sirchan instrumenti bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda avvalo iqtisodiyotning tarmoq va sohalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish hamda bu jarayonda moliya va sanoat kapitali integratsiyasini kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz, "Biz avvalo iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish borasidagi ishlarimizni yanada chuqurlashtirish, uning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish bo'yicha boshlangan ishlarni jadallashtirishimiz kerak".

Iqtisodiyotda integratsion jarayonlarning zaruriyligi va maqsadga muvofiqligi birlashish natijasida yuzaga keladigan samaraning ishtirokchilar o'rtasida

taqsimlanish mexanizmlarining naqadar muvofiqlashtirilganligi bilan belgilanadi. Chunki, alohida ishtirokchilarning guruhga jalb etishda va ular manfaatlarini hisobga olishdagi nomuvofiqlik iqtisodiyotda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat, istiqbolda moliya-sanoat guruhlarini faoliyatini barqaror rivojlantirishda ham jiddiy to'siq bo'ladi.

Bankning yangi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona kapitalida ishtirok etishi uning ushbu korxona mahsulotlarini ishlab chiqarish va takomillashtirishni moliyalashtirishga bo'lgan manfaatdorligini kuchaytiradi.

Moliya-sanoat guruhlarini ishtirokchilari o'rtasida kapital bo'yicha aloqalar integratsiyaning salohiyatini oshirishga ta'sir qiladi, chunki integratsion samaraning oshishi barcha ishtirokchilar uchun maqbul holat hisoblanadi. Sanoat korxonalari kapitalida bank ishtirokining ko'lamini, kreditlashning oqilona mexanizmini belgilash hamda yangi ishlab chiqarishni samarali moliyalashtirishdagi shart-sharoitlarni aniqlash uchun miqdoriy tahlil zarurdir. Bu holatda, bank va sanoat kapitali integratsiyaning innovatsion samarasini modellashtirish masalasi muhim hisoblanadi. Shartli ravishda modellarning uchta turini ajratish mumkin: representativ, regression va kontseptual.

Birinchisi modelga aloqalarning keng ko'lamini jalb etishga, tashqi va boshqariladigan parametrlarni, turli omillarni modelda to'liq qamrab olishga qaratilgan bo'ladi. Biroq modellashtirishga qancha ko'p aloqalar kiritilsa modelning asoslanganligi shunchalik oldingi aloqalar darajasiga bog'liq bo'ladi.

Regression modellar esa statistik muhim aloqalarni ifodalaydi.

Kontseptual modellar iqtisodiy hodisalar yuzaga kelishining muhim jihatlari ajratish asosida ularning xususiyatini yoritishga va bog'liqlik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Xorijiy tajribalarga ko'ra ko'plab iqtisodiy tizimlarda boshqarish vazifalarini mukammal ishlab chiqish va hal etish muhim masalalardan biridir, bunday tizimlarni modellashtirish tajribasi moliya-sanoat guruhlarining representatsion modellarini ishlab chiqishda qulay zamin yaratadi. O'zaro korporativ aloqalarning maqsadga muvofiq tashkil etilmaganligi sharoitlarida tegishli hisob-kitoblar aylanma mablag'larni iqtisod qilish, soliq majburiyatini optimallashtirish nuqtai nazaridan muhim samarani bera oladi. Murakkab shart-sharoitlarda iqtisodning bunday turi ko'pincha guruhlangan korxonalar faoliyatini barqarorlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyidagilar moliya-sanoat guruhlarini modeli tahlil qilishning eng muhim yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi:

- investitsion qarorlarni moliya-sanoat guruhlarini doirasida muvofiqlashtirish va tegishli investitsion loyihalarni amalga oshirishdan olingan foydani taqsimlash;
- aktsiyadorlik, kredit va kooperatsion aloqalarni texnologik zanjir bo'ylab muvofiqlashtirish;
- moliya-sanoat guruhlarining innovatsion afzalliklari;
- moliya-sanoat guruhlarini guruh ishtirokchilarini o'zaro sug'urtalash mexanizmi sifatida;
- moliya-sanoat guruhlarini ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyati hamda manfaatlarining guruh doirasida muvofiqlashtirilganligi;

– moliya-sanoat guruhlarida mavjud ishlab chiqarish resurslaridan olinadigan unumdorlikning oshishi.

Amaliyotda moliya-sanoat guruhlarining ishlab chiqarish va investitsion dasturlarini amalga oshirishda resurslar aylanishi bilan bog'liq integratsion samarani modellashtirishda ko'pgina natijalarga erishilgan. Moliya-sanoat guruhleri doirasida korxonalarining o'zaro hamkorligida aylanma mablag'larning iqtisod qilishga baho beriladi.

Moliya-sanoat guruhlarining strategik afzalliklarini amalga oshirish nuqtai nazaridan ushbu tuzilmalarda ayniqsa investitsion va innovatsion jarayonlarni tavsiflovchi bog'liqliklarni ifodalash muhimdir. Bunday jarayonlarni modellashtirish moliya-sanoat guruhleri faoliyatida strategik masalalarni echishda muhim o'rin tutadi.

Moliya-sanoat guruhlarida yuqori ilmiy sig'imli ishlab chiqarishlarni tashkil etishda uning moliyaviy tomonlarini samarali tashkil etish muhimdir. Zamonaviy tadqiqotlarga muvofiq bir qator ilg'or xorijiy mamlakatlarda texnologik munosabatlarda va butun jahon xo'jaligida iqtisodiy o'sishning innovatsion turi asosiy o'rinda turishi tasdiqlandi. Uning asosida ilmiy yangiliklarni yaratish va ularni innovatsiyalarga tatbiq etish tizimi, shuningdek innovatsiyalarni kapitallashtirish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish mexanizmlari yotadi. Ushbu mexanizmlarning samaradorligi iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini hamda xo'jalik tizimida yangiliklarni yaratish va amaliyotga joriy etish imkoniyatini belgilaydi. Moliya-sanoat guruhleri faoliyatida aynan yuqoridagi masalalarni ijobiy hal etishda qulay sharoitlar mavjuddir.

O'zbekiston Respublikasi uchun ilg'or fan–texnologiya yutuqlarini va innovatsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish orqali uning barqarorligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunda innovatsion asoslarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish masalasi iqtisodiyotni rivojlantirishning ikkita asosiy yo'nalishlari harakatini birlashtirish yo'li bilan hal etilishi lozim:

- samarali bozorni tashkil etish, jumladan uning yangiliklarni keng miqyosda yaratilishini ta'minlovchi innovatsion segmentini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash, zamonaviy texnologiyalarni keng tarqalishi uchun qulay sharoitlar yaratish asosida iqtisodiyotning tuzilmaviy modernizatsiyasini amalga oshirish.

Davlat tomonidan bevosita rag'batlantirishda zarur infratuzilmaviy ta'minotni shakllantirish va korxonalar faoliyatida yangiliklarni joriy etishga investitsiyalarni faollashtirish innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladigan instrumentlar to'plamining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bevosita chora-tadbirlar ayniqsa xususiy sektorning ehtiyojlariga yo'naltirilgan va korxonalar uchun rag'batlantiruvchi xususiyatga ega bo'lsa samarali ta'sir ko'rsatadi. O'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashishga javob beradigan tarkibiy tuzilma va aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan strategiya ishlab chiqilmagan holatda ular pastroq natijaviylikka ega bo'ladi. Yuqori egiluvchanlikni talab qilmaydigan chora-tadbirlar majmuasidan foydalanishda ijobiy natijalarga erishiladi.

Kichik korxonalar innovatsion faoliyatini moliyaviy ta'minlash hozirgi kunda ko'proq moliya bozorlaridan jalb etiladigan qarz mablag'lari yoki aktsiyadorlik

kapitaliga investitsiyalar shaklida tashqi manbalar hisobidan amalga oshiriladi.¹ Bu o'z-o'zidan korxonalarga innovatsiyalarni moliyalashtirishni va texnik qayta qurollanishni amalga oshirishga ijobiy yordam beradi. Bu holatda, riskli moliyalashtirish innovatsion loyihalarni amalga oshirishning muhim instrumentlaridan biri bo'lib hisoblanadi hamda bevosita va bilvosita chora-tadbirlarning keng majmuasidan foydalanish asosida integratsion jarayonlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga xizmat qilishi lozim.

Bilvosita tartibga solish riskli moliyalashtirish uchun qulay sharoitlar yaratishga yo'naltirilishi kerak². Buning uchun raqobat tartiblari, intellektual mulk huquqini himoyalash to'g'risidagi qonunchilik, bank qonunchiligi hamda soliq siyosatining instrumentlaridan faol tarzda foydalanish kerak.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyali mahsulotlar bozorlarida faoliyat ko'rsatishning xalqaro tajribalariga ega bo'lgan mavjud milliy korxonalar negizida mahsulotlarning erkin harakatini ta'minlash uchun yirik innovatsion marketing markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur markazlar tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi tashkilotlar bilan birgalikda jahon bozorlarida yuqori texnologiya asosida ishlab chiqarilgan milliy mahsulotlar ishtirokini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqishlari lozim.

Milliy korxonalarning asosiy faoliyati nafaqat ichki bozorni kengaytirishga balki jahon mamlakatlari bozorlaridan mustahkam o'rin egallashga hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga mazkur bozorlarda ularning ulushini oshirishga yo'naltirilishi kerak.

Tadqiqotlar asosida erishilgan ilmiy natijalar asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish korxonalari va tijorat banklarining o'zaro integratsiyalashuvi nafaqat bozorda umumiy marketing holatini mustahkamlash balki majburiyatlarni taqsimlash, korporativ tartib-qoidalarga rioya etish, har bir korxona manfaatlarini hisobga olib ularni boshqarish tizimlari hamda faoliyat yuritishining strategik maqsadlari yagonaligi asosida sanoat, ilmiy-texnik, texnologik, moliyaviy va intellektual salohiyatlari birlashishini anglatadi.

- Korxonalarni integratsion jarayonlarni amalga oshirishga undovchi asosiy sabablar uchta guruhga tasniflanadi. Ushbu faoliyat birinchidan, ierarxik boshqarish tizimida vakolatlarni oqilona taqsimlash yo'li bilan menejment sifatini yaxshilash, bozor ko'lamini kengaytirish, xarajatlarni pasaytirish, ilmiy-texnik, kadrlar va moliyaviy salohiyatni kuchaytirishdan muayyan foyda hamda afzallikni olish uchun qo'llaniladi. Ikkinchidan, nomaqbul birlashishlar xavfidan, o'zgaruvchan bozor sharoitlari doirasida biznes bo'yicha raqiblarning raqobat afzalliklari kuchayishidan, bozorlardagi salbiy o'zgarishlardan ogohlantiruvchi himoya maqsadida. Uchinchidan, mahsulotlar hamda faoliyat turlarini diversifikatsiyalash va yangilash bo'yicha strategik qarorlarni qabul qilish variantlarining xilma-xilligiga muvofiq ravishda sohani kengaytirish maqsadida.

¹ Хрусталеv О.Е. Финансовые методы согласования экономических интересов участников инвестиционных проектов // Аудит и финансовый анализ. 2011. № 3.

² Хрусталеv О.Е., Хрусталеv Ю. Е. Инструментальные методы оценки реализуемости наукоемкого инвестиционного проекта // Экономический анализ: теория и практика. 2011. № 27.

– Integratsiyalashgan moliya-sanoat tuzilmalarida bir qator omillar mujassamligi asosida yuqori iqtisodiy samaraga erishishga imkon yaratiladi. Bular jumlasiga, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning muhim yo'nalishlariga moliyaviy resurslarni jalb etish, xorijiy bozorlarda mustahkam o'rin egallash hamda tuzilmaning har bir ishtirokchisi faoliyatida menejment sifatining yaxshilanishi kabilar kiradi.

– O'zbekistonda moliya va sanoat kapitali integratsiyasini ta'minlash istiqbolda korxonalarning keng ko'lamdagi innovatsiyalarni joriy etish salohiyatini oshiradi. Chunki, iqtisodiyot real sektoridagi korxonalarda innovatsiyalarni joriy etish jarayoni bevosita moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojga taqaladi. Mazkur masala moliya va sanoat kapitali integratsiyasini ta'minlash orqali ijobiy hal etiladi.

– Ishlab chiqarish sanoatidagi korxonalar va moliyaviy institutlar integratsiyasi asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, mahsulotlar sotuvchi, xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yuqori integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarni shakllantirish va uning doirasida yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli loyihalarni amalga oshirish lozim.

– Ishlab chiqarishning texnologik davri o'zaro aloqador bo'lgan sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalarining vertikal integratsiyasi orqali xoldinglar shaklidagi korporativ tuzilmalarni shakllantirish va ulardagi istiqbolli loyihalarga banklarning investitsiyalarini yo'naltirish lozim. Mazkur integratsiyalashgan tuzilmalarga ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi texnologik va kooperatsion aloqador korxonalarni jalb etish hamda ular faoliyati takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini qamrab olishiga hamda korxonalarning moliyaviy va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalarni joriy etishga alohida ahamiyat berish lozim.

– Mamlakatimizda innovatsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng ko'lamda joriy etish va istiqbolda yuqori samaraga erishishni ta'minlash maqsadida, innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish jarayonini nazorat etuvchi davlat organini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda innovatsion bozorning shakllanishi mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi, iqtisodiyot intensiv tarmoqlari rivojlanish mexanizmida asosiy elementlardan bo'lib malakali ilmiy-texnik, texnologik va moliyaviy menejment orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim.